



«TASDIQLAYMAN»
O'zbekiston Respublikasi
Tashqi ishlar vaziri o'rinbosari

A.XODJAYEV

«14» 02 2017 y.

**“O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansub-mansub emaslikni aniqlash tartibi”
davlat xizmati reglamenti**

1. Xizmat tavsifi (pasporti)

1.1. Xizmat nomi

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansub-mansub emaslikni aniqlash.

Xorijda doimiy yashayotgan va O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini o'rnatilgan tartibda qabul qilmagan va O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga mansub-mansub emasligi to'g'risidagi ma'lumotnomani olish istagida bo'lgan shaxslar O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalariga ariza-so'rovnoma bilan murojaat etadi.

1.2. Xizmat natijasi

O'zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari ushbu shaxslarning anketa-arizalarini O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi orqali O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga yuboradilar.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ushbu shaxslarning anketa-arizalarini qabul qilgandan so'ng ularni uch kun mobaynida ushbu shaxslarning oldingi doimiy yashash manzilidagi ichki ishlar idoralariga yuboradi.

1.3. Xizmat ko'rsatuvchi organlar va blankalar olish uchun manzil

O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi Elchixonalar hamda Tashqi ishlar vazirligi va Ichki ishlar vazirligi bilan birgalikda.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga mansub emaslik haqidagi ma'lumotnomaning ariza blankalari O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari veb-sahifalarida mavjud.

1.4. Huquqiy asos

Ushbu tartib 1992-yil 2-iyuldagi O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risidagi» Qonuni asosida ishlab chiqilgan.

1.5. Xizmat ko'rsatiladigan shaxslar

Ushbu harakat ostiga «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risidagi» Qonun kuchga kirgunga qadar, ya'ni 1992-yil 2-iyulgacha O'zbekiston Respublikasidan chiqib ketgan va 1992-yil 2-iyuldan keyin O'zbekiston Respublikasida yashab, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini qabul qilmasdan chet elga chiqib ketgan shaxslar kiradi.

1.6. Murojaat etish muddati

Mansub emaslik haqidagi ma'lumotnomani olish uchun so'rovnomani yuborish arizachining istagi bilan bog'liq.

1.7. Bajarish muddati

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga mansub emaslik haqidagi ma'lumotnomani so'rab olish muddati – 20 ish kunidan 45 ish kungacha.

1.8. Tasdiqni berish muddati

Konsullik yig'imlarining to'lov chiptasi arizachining barcha hujjatlarining taqdim etilganligini tasdiqlovchi hujjatdir.

2. Xizmat oluvchilarga ma'lumot berish

2.1. Ma'lumot tarkibi va hajmi

Murojaat etuvchi shaxsga quyidagi ma'lumotlar taqdim etilishi kafolatlanadi:

- *Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotning joylashgan hududi, ish jadvali, arizachilarni qabul qilish tartibi (telefon orqali oldindan yozilib qo'yish, murojaat qilgan kun qabul qilish, jonli navbat...);*
- *kerakli hujjatlar ro'yxati;*
- *kerakli blanklarni olish va to'lovni to'lash tartibi;*
- *xizmatdan foydalanish jarayoni;*
- *xizmat ko'rsatish muddati;*

2.2. Keng xabardor qilish

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga mansub emaslik haqidagi ma'lumotnomani so'rab olish, blanklarni to'ldirish haqidagi ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari veb-sahifasidan olish mumkin.

2.3. Murojaat orqali ma'lumot

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga mansub emaslik haqidagi ma'lumotnoma ichki ishlar idoralaridan olingandan so'ng, O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasalari tomonidan arizachiga elektron anketada ko'rsatib o'tilgan telefon raqami va elektron pochta orqali xabar qilinadi.

Shaxsan: 9-00 dan 18-00 gacha xizmat ko'rsatish haqida barcha savollar bo'yicha og'zaki maslahatlar berish (10 daqiqadan ortiq emas) va kerakli hujjatlarning standart matni, tarkibi ko'rinishida yozma ma'lumot berish;

Telefon orqali: 9-00 dan 18-00 gacha katta hajmdagi ma'lumotni berishni talab qilmaydigan xizmat ko'rsatish haqida barcha savollar bo'yicha og'zaki maslahatlar berish (10 daqiqadan ortiq emas);

Faks orqali: kun-u tun yozma murojaatlarni qabul qilish, 9-00 dan 18-00 gacha qog'oz ko'rinishidagi hujjatlarni murojaatga binoan jo'natish (3 betdan ortiq emas);

Elektron pochta orqali: kun-u tun istalgan yozma murojaatlarni matnning keng tarqalgan formatlar yoki kelishuvga asosan boshqa ko'rinishida yozma murojaatlarni qabul qilish, 9-00 dan 18-00 gacha oddiy matn formatidagi yozma hujjatlarni yoki ilova qilingan fayl yoki

kelishuvga asosan boshqa ko'rinishida, ushbu standartning jo'natishga tayyor bo'lgan fayllar, kerakli blanklar, manzilga borish sxemasi mavjudligi.

2.4. Xizmat ko'rsatish joyida ma'lumot berish

Manzil, telefon raqamlar, faks, elektron adreslar, veb-sahifalar va boshqa ma'lumotlarni <http://mfa.uz/ru/consular/consular/> da olish mumkin.

2.5. Ishlatiladigan hujjatlar blanklari

O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansub-mansub emaslik haqidagi ma'lumotnomaning blanklari qat'iy hisobot yuritilmaydigan hujjat hisoblanadi va ichki idoralararo yo'riqnomalar bilan tasdiqlangan rekvizitlarni o'z ichiga oladi.

3. Xizmat ko'rsatish

3.1. Ish vaqti

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga mansub emaslik haqidagi ma'lumotnomani olish bilan bog'liq fuqarolarning arizalari O'zbekiston Respublikasi konsullik muassasalarining qabul kunlarida topshirish mumkin.

4. Xizmat ko'rsatish jarayoni

4.1. Kerakli hujjatlar

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga mansub emaslik haqidagi ma'lumotnomani olish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- to'ldirilgan elektron anketa-ariza;*
- pasport, fuqaroligi yo'q shaxslarning guvohnomasi, tug'ilganlik haqidagi guvohnoma;*
- konsullik yig'imi;*

4.2. Xizmatga to'lov

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga mansub emaslik haqidagi hujjatni O'zbekiston Respublikasidan talab qilib olish xizmati 1996-yil 29-avgustdagi O'zbekiston Respublikasining 261-I-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasining Konsullik Ustavi" 71-moddasi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 24-dekabrda PQ-2095-sonli "O'zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalari xodimlarining mehnat to'lovi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga asosan pullik hisoblanadi: hujjat talab qilinishi uchun konsullik yig'imi har bir hujjat uchun quyidagi to'lovlar undiriladi:

- uzoq xorijdagi davlatlarda istiqomat qiluvchilardan – 100 AQSh dollari + ma'muriy xarajatlar;*
- MDH davlatlarida istiqomat qiluvchilardan – 50 AQSh dollari + ma'muriy xarajatlar.*

4.3. Xizmat ko'rsatish bosqichlari

- 1) elektron anketa-arizani to'ldirish;*
- 2) anketa-ariza va unga ilova qilingan hujjatlarni konsullik muassasalariga topshirish;*
- 3) arizachi bilan konsulning suhbat o'tkazishi va hujjatlarini tekshirish;*
- 4) konsullik va ma'muriy yig'imlarni to'lash va hujjatlarni konsulga topshirish;*
- 5) telefon orqali tayyor bo'lgan hujjat haqida xabar berish va qabul qilib olish.*

4.4. Idoralararo xizmat ko'rsatish jarayonlari

- 1) konsullik xodimi tomonidan elektron anketa-arizani tekshiriladi va arizachidan qabul qilinadi;
- 2) qabul qilingan hujjatlar O`zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Konsullik boshqarmasiga yuboriladi;
- 3) O`zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Konsullik boshqarmasi, o`z navbatida, O`zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga so`rovnoma xati bilan yuboradi;
- 4) O`zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansub emaslik haqidagi ma`lumotnomani O`zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligidan olingandan so`ng, O`zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Konsullik boshqarmasi tomonidan hujjat O`zbekiston Respublikasining xorijdagi konsullik muassasasiga yuboriladi va konsullik muassasasi tomonidan anketada ko`rsatilgan telefon orqari arizachiga O`zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansub emaslik haqidagi ma`lumotnoma tayyorligi haqida xabar beriladi.

4.5. Rad qilish asosi

Quyidagi sabablarga ko`ra O`zbekiston Respublikasining fuqaroligiga mansub emaslik haqidagi ma`lumotnomani talab qilishda rad javobi beriladi:

- 1) Arizachi o`zi haqida hamda talab qilinayotgan hujjati yo`qolganligi haqida noto`g`ri ma`lumotlar taqdim qilsa;
- 2) Taqdim qilgan hujjatlari talabga javob bermasa (to`liq taqdim etilmasa, noto`g`ri to`ldirilsa);
- 3) Hujjatlarda taqdim qilingan ma`lumotlar noto`g`ri bo`lsa.

5. Sifatni ta'minlash

5.1. Sifat parametrlari

Hujjatlar o`rnatilgan tartibda taqdim qilinsa.

5.2. Sifatsiz ko`rsatilgan xizmat ustidan shikoyat qilish

Konsullik xodimi tomonidan hujjat qabul qilish asossiz rad etilsa, ushbu holat yuzasidan konsullik muassasasining rahbariga yoki O`zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga shikoyat qilish mumkin.

«KIRITILGAN»

O`zbekiston Respublikasi
Tashqi ishlar vazirligi
Konsullik boshqarmasi boshlig`i

A.SAXIBOV

«14» 02 2017y.

«KELISHILGAN»

O`zbekiston Respublikasi
Axborot texnologiyalari
va kommunikasiyalarini
rivojlantirish vazirligi

«_____» _____ 2017y.